

TIJORAT BAKLARIDA DIVIDEND SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11521670>

Sheraliyev Olimjon

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil
izlanuvchisi*

Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini samarali tashkil etish mamlakat moliya tizimi barqarorligini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki Aksiyadorlik jamiyatlari moliyasi (korporativ moliya) davlat byudjeti daromadlarining o'z vaqtida va to'liq shakllanishida, uy xo'jaliklarining doimiy daromad manbasiga ega bo'lishlarida, tashqi savdo munosabatlarida, moliya-kredit muassasalarining barqaror ishlashida o'ziga xos vositachi vazifasini o'taydi. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyat samaradorligi bevosita olingan foyda va aksiyadorlarga to'lanayotgan dividend miqdori bilan belgilanishidan kelib chiqqan holda mamlakatimizda dividend siyosatining tashkiliy xususiyatlari va takomillashtirish masalalari xususida quyida to'xtalib o'tamiz.

Mamlakatimizdagi Aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosati 2014-yil 6-mayda yangi tahrirda qabul qilingan "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun asosida tashkil etiladi. Mazkur qonunga ko'ra "Dividend jamiyat sof foydasining aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadigan qismidir. Jamiyat aksiyalarning har bir turi bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni to'lashi shart".

Dividend siyosatidagi asosiy muammo olingan foydaning aksiyadorlar o'rtasida dividend ko'rinishida to'lanadigan qismi va foydaning biznesni yanada rivojlantirish uchun yo'naltiriladigan qismi o'rtasidagi optimal nisbatni belgilash bo'yicha qaror qabul qilishning murakkabligi bilan izohlanadi.

Amaldagi tartibga ko'ra, Aksiyadorlik jamiyatlari moliya yilining birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi natijalariga ko'ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko'ra joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida fond bozorida eng faol ishtirokchi sifatida tijorat banklarini ko'rish mumkin. Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida ham emitent sifatida, ham investor va vositachi sifatida ishtirok etadi. Shuning uchun, tijorat banklari qimmatli qog'ozlar emitenti sifatida investorlarni daromad olishlarini ta'minlashlari kerak.

Tijorat banklari emitent sifatida aksiyadorlarga doimiy dividendlar to'lanishi orqali qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish imkoniyatini qo'lga kiritadi va bu orqali banklarning kapitallashuvini ortishiga sabab bo'ladi. SHuning uchun ham tijorat banklari dividend siyosatiga alohida e'tibor berishlari zarur.

Dividend siyosati banklarning strategik maqsadlariga erishish uchun qudratli vositalardan biridir. Binobarin, banklarning daromadi etarli bo'lganda ham, dividend to'lovlari banklarning investitsion jozibadorligini, kapitalizatsiya darajasini, uning aksiyalari likvidliligini oshirishda va natijada banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, tijorat banklarining samarali dividend siyosati quyidagi afzalliklarni beradi.

Yuqoridagi rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tijorat banklari uchun oqilona va samarali dividend siyosatini tuzish uchun bir qancha jihatlarga alohida e'tibor berish kerak deb hisoblaymiz.

Tijorat banklari dividend siyosatida dividend to'lab borishga muntazam e'tibor qaratish bilan birga investorlarga to'lanadigan aksiyalar daromadlilik darajasini ham hisobga olish lozim. Chunki aksiyalar yuqori riskli qimmatli qog'oz hisoblanishi boistijorat banklari dividend darajasi eng avvalo omonat va depozitlar foiz stavkasidan yuqori bo'lishi kerak. Davlat qimmatli qog'ozlari riski past moliyaviy aktivlar qatorida e'tirof etilsada, shu bilan bir qatorda undan olinadigan daromad ham kam bo'ladi. Tijorat banklari dividend to'lovlarini hisoblab chiqishda korporativ obligatsiyalar, depozit sertifikatlari va omonatlar hamda davlat obligatsiyalari va xazina majburiyatlari daromadlilik e'tiborga olishlari juda muhim sanaladi.

Olib borilgan izlanishlarimiz va o'rganishlarimiz natijasida, tijorat banklari amaliyotida dividend siyosati bankning sof foydasini taqsimlash orqali tashkil etilgan. Shunday bo'lsada, tijorat banklarining deyarli ko'pida dividend to'lovlari yilik inflyasiya darajasidan past to'langanligi investorlarni qoniqtirmaydi albatta. Buning oqibatida, tijorat banklari kapitalining o'sish darajasi bugungi kun talabiga mos emas. Shuning uchun ham O'zbekiston bank tizimini rivojlantirish uchun ilg'or xorijiy tajriba asosida tijorat banklaridagi dividend siyosati rolini oshirish dolzarb va amaliy ahamiyatdagi masala bo'lib, shu nuqtai nazardan banklar bu masalaga jiddiy e'tibor qaratishlari talab etiladi.

Milliy fond bozorining asosiy ishtirokchisi bo'lgan tijorat banklari dividend siyosatida bir qator quyidagi kamchiliklar va muammolar mavjud:

- tijorat banklarining asosiy aksiyadorlari davlatning yirik korxonalari ulushidan iboratligi va natijada zamonaviy biznes jarayonlarda faol ishtirok etmasligi;
- potensial investorlarni qoniqtiradigan va bank kapitalini oshirish uchun xizmat qiladigan oqilona dividend siyosatini olib borish uchun investorlarga shart-sharoit yaratish zarurati;
- tijorat banklarida qimmatli kog'ozlar bo'yicha daromadlik va likvidlilikni ta'minlashda oqilona dividend siyosatini tashkil etadigan malakali kadrlar etishmasligi;
- tijorat banklaridagi korporativ boshqaruvning shaffofligi va korporativ boshqaruv tamoyillari talablari mos emasligi;
- tijorat banklaridagi dividend to'lovlarining pastligi yoki umuman dividend to'lanmasligi, natijada aksiyalarga qiziqishning mavjud emasligi;
- tijorat banklari tomonidan aksiyadorlar yig'ilishini 1 yilda bir marta nomigagina o'tkazishlari va dividend to'lovlari haqidagi mu'lumotlarning ba'zi banklar internet sahifasidan yoki boshqa manbalardan ochiq va to'liq holatda topishniimkoni yo'qligi.

Fikrimizcha, dividendlarni yillik to'lovlar darajasini va muntazam oshib borishligini hisobga olish kerak. Bu esa halqaro fond bozorida mamlakatimiz tijoratbanklarining IPO amaliyotini tashkil etishdagi listing talablaridan biri bo'lishi lozim. Aksariyat tijorat banklari rivojlangan halqaro fond birjalarning IPO talablarini qondira olmaydi. Shuning uchun milliy fond birjalari strategik moliyaviy rejalarni ishlab chiqib amaliyotga tadbiq etishlari kerak.

Shuni alohida qayd etish kerakki, tijorat banklarining investitsion jozibadorligini ta'minlashning muhim jihatlaridan biri bu axborotlarning oshkoraligi va shaffofligi masalasidir. Shuning uchun barcha tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari asosida tahlilni amalga oshiradigan alohida maxsus reyting agentligini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Maxsus reyting agentligi moliyaviy hisobotlar tahlili asosida qator ko'rsatkichlarga, xususan, moliyaviy barqarorlik, rentabellik, aksiya daromadliligi, aksiya riski va bir qancha muhim ko'rsatkichlarga e'tibor qaratishi kerak.

Banklarning dividend siyosati rivojlangan mamlakatlar qimmatli qog'ozlar bozorining faol ishtirokchilari faoliyatining kengayishi va yangi yo'nalishi tufayli qimmatli qog'ozlar bozorining jadal sur'atlarda rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Ushbu holat banklarning iqtisodiy rivojlanishini susaytirishi va ularning raqabtbardoshligini hamda xorijiy investorlarning qiziqishini pasayishiga olib kelishi mumkin.